



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etish bo‘yicha **tavsiya** 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **o‘zbek tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **rus tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh** (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) **tillarida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi variativ o‘quv rejalarini 4-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh** (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) **tillarida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi variativ o‘quv rejalarini 5-ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) ikki hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini mazkur buyruq bilan yo‘nalishlar kesimida tasdiqlangan o‘quv rejalariga muvofiq ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ o'quv rejalarini joriy qilish **ixtiyoriy** hisoblanadi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ o'quv rejalarini asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda tayanch o'quv rejada belgilangan umumiy **haftalik dars soatlari hajmi** saqlanib qolinadi.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

variativ o'quv rejalarini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalariga yetkazish;

tavsiya etilgan yo'nalishlar bo'yicha variativ o'quv rejalarini asosida o'qitiladigan sinflarni shakllantirishda o'quvchilar va ota-onalarning xohishlari inobatga olinishini ta'minlash;

variativ o'quv rejalarini joriy etish, tanlov fanlarini belgilash va sinflarni shakllantirishda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi Kuzatuv kengashi orqali muntazam jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

joriy yil **25-sentabr kuniga qadar** variativ o'quv rejalarini joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlarni (ta'lim tili, sinfi, yo'nalishi va o'quvchi soni) Vazirlikka taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ o'quv rejalarini bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda **o'qituvchilar o'rtasida dars soatlarini** belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda ta'lim muassasalari direktorlari **shaxsan mas'ul etib belgilansin.**

6. Respublika ta'lim markaziga:

bir oy muddatda variativ o'quv rejalarini asosida tegishli o'quv dasturlarni va namunaviy taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish;

joriy yil **15-avgustga qadar** ushbu o'quv dasturlar hamda taqvim-mavzu rejalarini hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazish vazifalari yuklatilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan variativ o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 20-iyundagi 190-son buyrug'i 2025-yil 31-avgust kuni dan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklansin.

Vazir

X.Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil “ 23 ”-may,
167-son

